XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2021 - yil 31 - dekabr VI-48-101-5-77-K/21 Xatirchi tuman hokimligi

Xatirchi tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Xatirchi tumani mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 73194,0 mln.so‘m, xarajatlari 223960,9 mln.so‘mga tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Xatirchi tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjetidan 2022-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjetiga umumdavlat

soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat budjetidan Xatirchi tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2112,8 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Xatirchi tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Xatirchi tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarning zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

2022-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. Xatirchi tuman bo‘yicha 2022-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 8-ilovaga, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Xalq deputatlari tuman Kengashiga keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalariga tegishlicha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni hududlarda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari

kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda qo‘yidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i,tamaki va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilingan 63 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlash hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘idan tushumlar viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlash 4-ilovaga asosan.

Tuman hokimining o‘rinbosari (B.Ne’matov), Moliya bo‘limi boshlig‘i (J.Qahhorov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimurodov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

tuman mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimurodov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimurodov), Kadastr agentligi bo‘limi (G‘.Xoliqov) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimurodov) tuman hokimligi bilan

birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi boshlig‘i (N.G‘offorov) tuman soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimurodov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (Z.Mamatova) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish va monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

18. Tuman hokimligi:

Tuman budjetining jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman Xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Tuman hokimining o‘rinbosari (B.Ne’matov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Mazkur qaror “Xatirchi hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman

Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashi raisi **S.Nizamov**

Халқ депутатлари Хатирчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
1-илова

Xatirchi tumanini 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	x
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	x
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	12,4
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	4,2
5.	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	5,8
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	4,9

Халқ депутатлари Хатирчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
2-илова

Xatirchi tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami	JAMI	73 194 000,0
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	15 024 000,0		
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	906 000,0		
3	Aksiz solig‘i, jami	32 784 000,0		
	shu jumladan:			
	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	12 418 000,0		
	Tamaki	13 292 000,0		
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	7 074 000,0		
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 120 000,0		
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 790 000,0		
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	3 740 000,0		
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 777 000,0		
8	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	4 068 000,0		
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 985 000,0		

Халқ депутатлари Хатирчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun Xatirchi tumani mahalliy budjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**223 960 863,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**204 158 645,0**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
1	**Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**4 396 167,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 396 167,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Tuman Xalq ta’limi bo‘limi**	**12 589 558,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 589 558,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Tuman tibbiyot birlashmasi**	**86 462 131,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	86 462 131,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Tuman Madaniyat bo‘limi**	**1 891 404,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 891 404,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Bolalar va o‘smirlar sport maktabi**	**4 743 710,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 743 710,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Bolali oilalarga kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**61 778 615,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	61 778 615,0

	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Ijtimoiy ko'nikma markazlari**	**52 572,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	52 572,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi**	**773 369,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	773 369,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**13 368 611,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 368 611,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya bo‘limi**	**3 249 888,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 249 888,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Veterinariya bo‘limi**	**2 133 569,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 133 569,0
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Tuman mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 459 458,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 459 458,0
	Indeksatsiya mablag‘lari	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Tuman hokimligi va boshqaruv idoralari**	**11 259 593,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 259 593,0
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	7 125 188,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	2 112 838,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	10 564 192,0

	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Халқ депутатлари Хатирчи туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdavlat soliqlaridan Xatirchi tumani mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

T/R	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Xatirchi tumani	100	100	100	30	100	100	100

Халқ депутатлари Хатирчи туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
5-илова

2022-yil uchun Xatirchi tumanining budjet daromadi va xarajati prognozi

ming so‘mda

Tuman nomi	Daromad	Xarajat
Xatirchi tumani	73 194 000,00	223 960 863,00

Халқ депутатлари Хатирчи туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
6-илова

Viloyat budjetidan Xatirchi tuman mahalliy budjetiga 2022-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori

ming so‘mda

Tuman nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Xatirchi tumani	150 766 863,00

Халқ депутатлари Хатирчи туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
7-илова

Xatirchi tuman mahalliy budjetining 2022-yilda shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘ining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Miqdori
1	Xatirchi tumani	641 822,00

Халқ депутатлари Хатирчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
8-илова

Yuridik shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

so'mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig'i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga. uchun)
1	Damariq	1,0	26 100 000,0
2	Yangirabod	1,0	26 100 000,0
3	Paraxun	1,0	26 100 000,0
4	Samarqand	1,0	26 100 000,0
5	Chinobod	1,0	26 100 000,0
6	Navbahor	1,0	26 100 000,0
7	Binokor	1,0	26 100 000,0
8	Do'stlik	1,0	26 100 000,0
9	Farovon	1,0	26 100 000,0
10	Yangi qurilish	0,8	20 880 000,0
11	Tinchlik	0,8	20 880 000,0
12	Navro'z	0,8	20 880 000,0
13	Zarafshon	0,8	20 880 000,0
14	Bog'chakalon	0,8	20 880 000,0
15	Tamabaxrin	0,8	20 880 000,0
16	Avoqli	0,8	20 880 000,0
17	Polvonota	0,8	20 880 000,0
18	Ko'ksaroy	0,7	18 270 000,0
19	Ikrom Karvon	0,8	20 880 000,0
20	Istiqlol	0,8	20 880 000,0
21	Paxtakor	0,8	20 880 000,0
22	Novja	0,8	20 880 000,0
23	Xo'jaqulobod	0,8	20 880 000,0
24	Toshquloq	0,8	20 880 000,0
25	Madaniyat	0,7	18 270 000,0
26	Fidokor	0,8	20 880 000,0
27	Mirzo Ulug'bek	0,8	20 880 000,0
28	Olmazor	0,8	20 880 000,0

29	Jaloyir	0,8	20 880 000,0
30	Oq oltin	0,7	18 270 000,0
31	Bunyodkor	0,8	20 880 000,0
32	Galabek	0,8	20 880 000,0
33	Koriz arab	0,8	20 880 000,0
34	Dehqonobod	0,8	20 880 000,0
35	Amir Temur	0,8	20 880 000,0
36	Uchtepa	0,8	20 880 000,0
37	Qurg'oncha	0,8	20 880 000,0
38	Bog'ishamol	0,8	20 880 000,0
39	Chechakota	0,8	20 880 000,0
40	Xuddon	0,8	20 880 000,0
41	Mustaqillik	0,8	20 880 000,0
42	Guliston	0,8	20 880 000,0
43	Zarbdor	0,8	20 880 000,0
44	Changir	0,8	20 880 000,0
45	Saroy	0,8	20 880 000,0
46	Nayman	0,8	20 880 000,0
47	Qoracha	0,8	20 880 000,0
48	Miyonkol	0,8	20 880 000,0
49	Alisher Navoiy	0,8	20 880 000,0
50	Xo'jaqurg'on	0,8	20 880 000,0
51	Kattasoy	0,7	18 270 000,0
52	Quchchi	0,8	20 880 000,0
53	Yangi	0,8	20 880 000,0
54	Bug'irdoq	0,8	20 880 000,0
55	Qo'shchinor	0,8	20 880 000,0
56	Uyshun	0,8	20 880 000,0
57	Chag'atoy	0,8	20 880 000,0
58	Tasmachi	0,8	20 880 000,0
59	Oltinobod	0,7	18 270 000,0
60	Mirdosh	0,7	18 270 000,0
61	Uchqora	0,7	18 270 000,0
62	Oltinsoy	0,7	18 270 000,0
63	Baxshijar	0,7	18 270 000,0
64	Sangijuman	0,7	18 270 000,0
65	Maydonsoy	0,7	18 270 000,0
66	Qurg'ontepa	0,7	18 270 000,0
67	Oqtepa	0,7	18 270 000,0
68	Angidon	0,7	18 270 000,0
69	Langar	0,7	18 270 000,0
70	Xonaqa	0,8	20 880 000,0

Халқ депутатлари Хатирчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-101-5-77-K/21-сон қарорига
9-илова

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

so'mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig'i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)
1	Damariq	1,0	156
2	Yangirabod	1,0	156
3	Paraxun	1,0	156
4	Samarqand	1,0	156
5	Chinobod	1,0	156
6	Navbahor	1,0	156
7	Binokor	1,0	156
8	Do'stlik	1,0	156
9	Farovon	1,0	156
10	Yangi qurilish	0,8	124,8
11	Tinchlik	0,8	124,8
12	Navro'z	0,8	124,8
13	Zarafshon	0,8	124,8
14	Bog'chakalon	0,8	124,8
15	Tamabaxrin	0,8	124,8
16	Avoqli	0,8	124,8
17	Polvonota	0,8	124,8
18	Ko'ksaroy	0,7	109,2
19	Ikrom Karvon	0,8	124,8
20	Istiqlol	0,8	124,8
21	Paxtakor	0,8	124,8
22	Novja	0,8	124,8
23	Xo'jaqulobod	0,8	124,8
24	Toshquloq	0,8	124,8
25	Madaniyat	0,7	109,2
26	Fidokor	0,8	124,8
27	Mirzo Ulug'bek	0,8	124,8
28	Olmazor	0,8	124,8
29	Jaloyer	0,8	124,8
30	Oq oltin	0,7	109,2

31	Bunyodkor	0,8	124,8
32	Galabek	0,8	124,8
33	Koriz arab	0,8	124,8
34	Dehqonobod	0,8	124,8
35	Amir Temur	0,8	124,8
36	Uchtepa	0,8	124,8
37	Qurg'oncha	0,8	124,8
38	Bog'ishamol	0,8	124,8
39	Chechakota	0,8	124,8
40	Xuddon	0,8	124,8
41	Mustaqillik	0,8	124,8
42	Guliston	0,8	124,8
43	Zarbdor	0,8	124,8
44	Changir	0,8	124,8
45	Saroy	0,8	124,8
46	Nayman	0,8	124,8
47	Qoracha	0,8	124,8
48	Miyonkol	0,8	124,8
49	Alisher Navoiy	0,8	124,8
50	Xo'jaqurg'on	0,8	124,8
51	Kattasoy	0,7	109,2
52	Quchchi	0,8	124,8
53	Yangi	0,8	124,8
54	Bug'irdoq	0,8	124,8
55	Qo'shchinor	0,8	124,8
56	Uyshun	0,8	124,8
57	Chag'atoy	0,8	124,8
58	Tasmachi	0,8	124,8
59	Oltinobod	0,7	109,2
60	Mirdosh	0,7	109,2
61	Uchqora	0,7	109,2
62	Oltinsoy	0,7	109,2
63	Baxshijar	0,7	109,2
64	Sangijuman	0,7	109,2
65	Maydonsoy	0,7	109,2
66	Qurg'ontepa	0,7	109,2
67	Oqtepa	0,7	109,2
68	Angidon	0,7	109,2
69	Langar	0,7	109,2
70	Xonaqa	0,8	124,8